

**“O‘zbekiston MET” AЖ**  
**Kuzatuv kengashiga hisobdor**  
**Ichki audit xizmati auditorlarini ishga**  
**olish bo‘yicha**  
**TALABNOMA**

**UMUMIY TALABLAR:**

1. Iqtisodiyot, moliya yo‘nalishlari bo‘yicha oliy ma‘lumotga ega bo‘lishi (diplom mutaxassisligi bo‘yicha: moliya va kredit, buxgalteriya va hisob);
  2. Yirik davlat korxonalarida va Iqtisodiy sohalarda ichki audit, buxgalteriya hisobi va hisoboti bilan bog‘liq bir yoki bir nechta bo‘limlarda yoki tashqi auditor lavozimlarida kamida uch yillik ish tajribasiga ega bo‘lish.
  3. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar bo‘yicha tushunchaga ega bo‘lish;
  4. Tavakkalchilikka asoslangan ichki audit tamoyillariga ega bo‘lish;
  5. Xizmat safarlariga tayyor bo‘lish;
  6. Komplayens-tavakkalchilikni boshqarish nazariyasini bilish;
  - 7 “Katta to‘rtlik” xalqaro audit-konsalting kompaniyalarida ish tajribasiga ega bo‘lish.
- Shu bilan birga, “ACCA”, “CFA”, “CPA” “CIA”, “CIPA”, “DipIFR”, “CRM” yoki “FRM” sertifikatiga ega bo‘lgan nomzodlarga Komissiya tomonidan ustunlik taqdim etilishi mumkin.
8. Kompyuter texnikasi hamda dasturlarida (Davlatauditi DM, MS Office, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint) mukammal darajada ishlay olishi.
  9. O‘zbek tilini mukammal, rus va boshqa chet tillarini o‘rta darajada bilgan nomzodlar ijobiy baholanadi.

**LAVOZIM MAJBURIYATLARI:**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son qarori bilan tasdiqlangan “Korxonalaridagi ichki audit xizmati to‘g‘risida”gi Nizomda belgilab o‘tilgan majburiyatlarni bajarishi va shu bilan birga;

- ichki audit xizmatining kuzatuv kengashi oldidagi hisobdorligi hamda ijro etuvchi organdan mustaqilligini ta‘minlash mexanizmlarini ishlab chiqish;

- amaldagi xalqaro standartlarga muvofiq tavakkalchilikka asoslangan ichki auditga o‘tish rejasini ishlab chiqish va kuzatuv kengashiga taqdim etish;

- Jamiyat faoliyatidagi manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, manfaatlar to‘qnashuvini minimallashtirish uchun ichki hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

- tavakkalchilikni boshqarish va komplayens bo‘limlari hamda boshqa tarkibiy bo‘linmalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish;

- aksiyadorlar bilan birgalikda xos biznes jarayonlarni va risklarni aniqlash, tahlil qilish va baholash;
- samarali ichki nazoratni tashkil etish bo'yicha rahbariyatga maslahat berish.

Ichki audit milliy standartlarida hamda ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasida belgilangan tartibda ichki audit tadbiri davomida tayyorlangan hujjatlar, audit usuli natijalari, bayonnomalar, dalolatnomalar, ma'lumotnomalar, ko'rsatmalar, hisobot, taklif va tavsiyalar, tahlillar, chora-tadbir rejalarini tayyorlash;

Lavozim yo'riqnomasida belgilangan tartibda boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.